

## V. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI<sup>1)</sup>



**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 17 443 508,8 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda, foyda hajmi 1 808 053,9 mln. so'm yoki 11,6 foizga oshdi.

### 2021-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	mln. so'm
<b>Jami</b>	<b>17 443 508,8</b>	<b>111,6</b>	
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash	229,9	-	
Ishlab chiqaradigan sanoat	17 278 264,2	111,7	
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	151 905,3	93,8	
Qurilish	1 621,6	175,0	
Savdo	-1 261,1	-	
Tashish va saqlash	9 713,7	-	
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-2 399,0	-	
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	1 051,0	154,9	
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-535,5	-	
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	74,2	99,5	
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2,5	80,6	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11,9		
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 830,1	2,8	

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga – 17 278 264,2 mln. so'mga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalariga

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

– 151 905,3 mln. so‘mga, tashish va saqlash – 9 713,7 mln. so‘mga, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga – 4 830,1 mln. so‘mga, qurilish korxonalariga -1 621,6 mln. so‘mga, ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar – 1 051,0 mln. so‘mga, to‘g‘ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi suv bilan ta’milanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalariga minus 2 399,0 mln. so‘mga, ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash 1261,1 mln. so‘mga to‘g‘ri keladi.

2021-yilning yanvar-avgust oylarini o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘sishi “Navoiy KMK” DK (16 086 327,8 mln. so‘m), “O‘zkimyosanoat” AJ (400 512,6 mln. so‘m), “Issiklik elektr stansiyalari” AJ (175 656,9 mln. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

#### **2021-yil yanvar-avgust oylarida foydaning o‘sish sur’ati yuqori bo‘lgan vazirlik va idoralar**

	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
“Navoiy KMK” DK	16 086 327,8	112,1
“O‘zkimyosanoat” AJ	400 512,6	4,0 m.
“Issiklik elektr stansiyalari” AJ	175 656,9	123,9
“O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi” AJ	452 406,5	90,7
“O‘zcharmsanoat” uyushmasi	16 846,7	90,4
“O‘zdonmahsulot” AK	1 257,3	84,1

Foydaning pasayishi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 24 785,2 mln. so‘m, “O‘zbekneftgaz” AJ – 7200,0 mln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 2 435,2 mln. so‘m, “O‘zagrokimyohimoya” AJ – 621,2 mln. so‘m, “Dori – Darmon” AJ – 34,6 mln. so‘mga yuqoridagi vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

#### **2021-yil yanvar-avgust oylarida foydaning pasayishi yuqori bo‘lgan vazirlik va idoralar**


	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	24 785,2	-
“O‘zbekneftgaz” AJ	7 200,0	-
O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi	2 435,2	-
“O‘zagrokimyohimoya” AJ	621,2	-

**2021-yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

mln. so‘m

	<i>Foyda, zarar</i> (+, -)	<i>O‘sish sur’ati,</i> % da
<b>Jami</b>	<b>17 443 508,8</b>	<b>111,6</b>
Navoiy sh.	16 771 172,6	112,0
Zarafshon sh.	-516,5	49,6
Karmana	640 477,8	100,7
Konimex	803,5	113,1
Qiziltepa	6 776,1	178,8
Navbahor	7 708,7	112,5
Nurota	229,9	-
Tomdi	-	-
Uchquduq	-	-
Xatirchi	16 856,7	90,4

**2021-yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**  
(2020-yil yanvar-avgustga nisbatan, % da)



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy shahar 16 771 172,6 mln. so‘m (jami foydaning 96,1 foiz), Karmana tumani 640 477,8 mln. so‘m (jami foydaning 3,7 foiz), Xatirchi tumani 16 856,7 mln. so‘m (jami foydaning 0,1 foiz), Qiziltepa tumani 6 776,1 mln. so‘m (jami foydaning 0,04 foiz)ga to‘g‘ri keladi.

**Zarar.** 2021-yilning yanvar-avgust oylarida 14 ta korxona 36 305,6 mln. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, “O‘zagrokimyohimoya” AJ vazirlik va korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar so‘mmasi</i>	
		<i>mln. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>14</b>	<b>36 305,6</b>	<b>100,0</b>
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	1	24 785,2	68,3
Ulgurji va chakana savdo	4	7 993,0	22,0
Suv bilan ta’minalash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	2	2 445,2	6,7
Tashish va saqlash	4	394,7	1,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	1	121,5	0,3
Boshqa turdag‘ xizmatlar	2	566,0	1,6

**2021-yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko‘rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i>
<b>Jami</b>	<b>14</b>	<b>100,0</b>	<b>36 305,6</b>
Navoiy shahar	8	98,2	35 649,8
Zarafshon shahar	4	1,5	530,7
Karmana tumani	1	0,3	121,5
Qiziltepa tumani	1	-	3,6

## Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati<sup>1)</sup>



2021-yil 1-sentabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 7 172 041 mln. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan – 14 910,1 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 2,1 foizi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2020-yil 1-sentabrga nisbatan solishtirganimizda 1,6 marta oshgan bo‘lsa, jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 19,2 foizga oshgan.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda debitor qarzdorligi yuqori Navoiy shahar 4 665 120,6 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 65,0 foiz), Karmana tumani 2 317 300,6 mln. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 32,3 foiz), Navbahor tumaniga 107 544,2 mln. so‘m (1,5 foiz) to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Qiziltepa tumani 18 399,7 mln. so‘m (0,1 foiz), Konimex tumani 228,2 mln. so‘m (0,003 foiz) va Zarafshon shahri 241,6 mln. so‘m (0,003 foiz) ga pastligini ko‘rish mumkin.

### **2021-yil 1-sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mln.so‘m</i>	<i>undan:</i>			<i>Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i>
		<i>xaridor va buyurtma- chilar</i>	<i>etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	
<b>Jami</b>	<b>148 910,1</b>	<b>148 487,2</b>	<b>171,0</b>	<b>64,8</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	142 374,9	141 962,2	-	158,1	95,6
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	4 199,3	4 199,3	-	-	2,8
Qurilish	225,1	214,8	-	-	0,2
Tashish va saqlash	680,5	680,5	-	-	0,4
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1 430,5	1 430,5	-	-	1,0

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021-yil 1-sentabr holatiga jami debitor qarzdorligi 5 988 847,6 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 83,5 foizini tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi “Navoiy KMK” DK 3 433 821,6 mln. so‘m (57,3 foiz), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ 1 514 618,2 mln. so‘m (25,3 foiz), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ 597 623,6 mln. so‘m (9,9 foiz).

Debitor qarzdorlik “O‘zkimyosanoat” AJ – 6,0 foizga, (361176,2 mln. so‘m), “O‘zdonmahsulot” AJ – 0,4 foizga (26372,3 mln. so‘m), “Hududgazta’mnot” AJ – 0,7 foizga (42 090,0 mln. so‘m), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 0,2 foizga (9788,6 mln. so‘m) kamaygan.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlikni 2020-yil 1-sentabrga nisbatan solishtirganimizda 8,7 foizga kamaygan.

2021-yil 1-sentabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 5 058 439,5 mln. so‘m, undan muddati o‘tgan – 66 212,7 mln. so‘m yoki jami kreditor qarzdorlikning 1,3 foizni tashkil etdi.

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikni 2020-yil 1-sentabrga nisbatan solishtirganimizda 56,9 foizga kamaygan bo‘lsa, jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 14,2 foizga oshgan.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021-yil 1-sentabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 4 026 128,3 mln. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 79,6 foizni tashkil qildi, shu jumladan muddati o‘tgan – 58 862,2 mln. so‘m yoki mos ravishda 61,7 foizga kamaygan.

### **2021-yil 1-sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	<i>Jami, mln. so‘m</i>	<i>undan:</i>				<i>Mudda- ti o‘tgan qarzdorlik- ning ulushi, % da</i>
		<i>etkazib beruvchi lar va pudrat- chilarga</i>	<i>byud- jetga to‘lov- lar</i>	<i>davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar</i>	<i>ichki idoraviy</i>	
<b>Jami</b>	<b>66 212,7</b>	<b>46 076,4</b>	-	<b>549,4</b>	<b>139,7</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	66 202,6	46 066,3	-	549,4	139,7	99,9
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	9,8	9,8	-	-	-	0,1
Tashish va saqlash	0,3	0,3	-	-	-	-

2021-yil 1-sentabr holatiga jami kreditor qarzdorlikning debtorlikdan kamayishi 2 113 601,5 mln. so‘mni tashkil qildi.

**Xo‘jalik boshqaruva organlarida jami kreditor qarzdorlikning debtorlikka nisbatan kamayishi**

	<i>Kreditor qarzdorlikning debtorlikdan kamayishi</i>	
	<i>mln. so‘m</i>	<i>debitorga nisbatan, % da</i>
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	1 289 596,6	14,9
“Navoiy KMK” DK	1 058 490,5	69,2
“O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi” AJ	185 284,7	73,6
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	81 400,8	86,4
“O‘zdonmahsulot” AK	22 964,2	12,9
“Hududgazta’midot” AK	15 546,8	63,1

Jami kreditor qarzdorlikning debitordan kamayishi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ – 1 289 596,6 mln. so‘mga (14,9 m.), “Navoiy KMK” DK 1 058 490,5 mln. so‘mga (69,2 foiz), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 81 400,8 mln. so‘mga (86,4 foiz), “O‘zdonmahsulot”AK– 22 964,2 mln. so‘mga (12,9 m.), “Hududgazta’midot” AK – 15 546,8 mln. so‘mga (63,1 m),

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda kreditor qarzdorlik kamayishi Karmana tumani 1 457 824 mln. so‘m (37,1 foiz), Navbahor tumani 30 149,4 mln. so‘m (72,0 foiz), va Qiziltepa tumani 11 759,1 mln. so‘m (36,1 m.) ga to‘g‘ri keldi.